

YUSUPOVA Kamola Otabek qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
talaba
kamolayusupova979@gmail.com

AYOLLAR ORASIDA ILM-FANNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

РАЗВИТИЕ НАУКИ СРЕДИ ЖЕНЩИН - ЗАЛОГ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

DEVELOPMENT OF SCIENCE AMONG WOMEN IS THE GUARD OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Annotatsiya: *Har bir jamiyatda ayollarning o'rni beqiyos. Ayollar orasida ilm-fanni rivojlantirish mamlakat rivoji, qolaversa, yoshlar tarbiyasi uchun ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolada O'zbekistonda ayollarga oid davlat siyosati natijasida amalga oshirilgan xatti-harakatlar yoritiladi. Ayollarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishdagi kamchiliklar keltirib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *“Olima” uyushmasi, gender tengligi, tadbirkor ayollar, Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti birlashmasi.*

Аннотация: *Роль женщин в каждом обществе неопределима. Развитие науки среди женщин имеет важное значение для развития страны, а также для воспитания молодежи. В данной статье освещаются действия, предпринятые в результате государственной политики в отношении женщин в Узбекистане. Анализируется роль и значение женщин в обществе, а также приводятся недостатки в повышении их социальной активности.*

Ключевые слова: *Ассоциация “Олима”, гендерное равенство, женщины-предприниматели, Ассоциация женщин-лидеров Центральной Азии*

Abstract: *The role of women in every society is incomparable. The development of science among women is important for the development of the country, as well as for the education of young people. This article highlights the actions taken as a result of the state policy regarding women in Uzbekistan. The role and importance of women in the society is analyzed and shortcomings in increasing their social activity are pointed out.*

Keywords: *“Olima” association, gender equality, women entrepreneurs, Association of Central Asian Women Leaders Dialogue.*

KIRISH

Bugungi kunda insoniyat texnika yangiliklari va texnologiyalar taraqqiyoti asrida yashamoqda. Erishilgan yutuqlarning zamirida sifatli ta'lim hamda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor yotadi. Barchaga ma'lumki, sifatli ta'lim va tarbiya taraqqiyot garovidir.

Talimga e'tibor esa kelajakka bo'lgan e'tibordir. Ayniqsa, ayollarning bilim olishi va ma'rifatli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Boisi shundaki, ayollar jamiyatning ajralmas qismi, farzand tarbiyachisi sifatida yuksak maqomga ega. Farzandiga tug'ilganidanoq birinchi bilimni ona beradi, uni so'zlashga, harakatlanishga, umuman, dunyoni anglashga o'rgatadi. Bolaning hayotga bo'lgan qarashlari onasining dunyoqarashi va ma'naviyati darajasiga qarab shakllanadi [7].

XXI asrda butun dunyo miqyosida ayollarga berilayotgan e'tibor ularning jamiyatda nufuzi ortishi va davlat boshqaruvidagi ishtirokini hamda ilmiy salohiyatini ortib borishiga xizmat qilmoqda. Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan islohotlar zamirida inson omili masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi roli, jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, ularga yangi imkoniyatlar yaratish, biznes sohasidagi loyihalarini qo'llab-quvvatlash, kadrlarni tanlash, tarbiyalash va bosqichma-bosqich yuqori lavozimlarga tayinlash, shuningdek, ularning amaldagi va istiqbolli zahirasini yaratish borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelindi.

ASOSIY QISM

Ayollarga berilgan keng imkoniyatlar natijasida, avvalo, ilm-fan sohasida yuksak natijalarni qo'lga kiritayotgan xotin-qizlarning safi kengayib borayotganligini ta'kidlash joizdir. Qolaversa, xalq xo'jaligining ishlab chiqarish, sanoat, kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik hamda qishloq xo'jaligining fermerlik sohalarida ularning ishtiroki kengayib bormoqda.

Mustaqillik yillarida ayollar intellektual salohiyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib keldi. Xususan, olim ayollarning ilm-fan sohasidagi innovatsion g'oyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha,

nafaqat Respublika miqyosida, balki xalqaro miqyosda ham qator yutuqlarga erishildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda nodavlat-notijorat jamoat tashkiloti sifatida tashkil qilingan O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar "Olima" uyushmasining ham hissasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi [5]. Uning tarkibida 6 nafar akademik (M.S.Abdullaxudjaeva, A.I.Glushenkova, M.I.Mavloniy, M.F.Obidova, R.A.Ubaydullaeva, S.Sh.Rashidova), 60 ta fan doktori, 4780 ta fan nomzodlari mavjud bo'lgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga keng imkoniyatlar yaratish va jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirish eng ustuvor vazifa sifatida belgilangan ekan, buning zahirida ularni ijtimoiy muhofaza qilish borasida yangicha yondashuvlar ham qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin.

Jumladan, ehtiyojmand ayollarga zarur sharoitlar yaratish, xotin-qizlar salomatligini tiklash va muhofaza qilish, ayniqsa, qishloq joylarda yashaydigan ayollarning kasb-hunar egallashiga ko'maklashish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha muhim tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Olima ayollar o'z ilmiy tadqiqotlari bilan fan, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalar taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Zero, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti ilm-fan rivojiga bog'liq ekan, bu o'z navbatida ilm-fan sohasida ilmiy-tadqiqot olib borayotgan ayollar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi.

2018-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" tanlovi diqqatga sazovor [8]. Unda o'z texnik loyihalari, ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarini amaliyotga joriy etish istagida bo'lgan olimalar, doktorantlar, iste'dodli talaba va o'quvchi qizlar, ixtirochilar, ratsionalizatorlar, muhandis konstruktor, dasturchi, tadbirkor ayollar ishtirok etib keladilar. Loyihalar ichidan 100 ta eng munosibi tanlab olinib, ularning mualliflari tanlov g'olibi sifatida e'tirof etiladi. Bu esa albatta, ayollarga oila va farzand tarbiyasi bilan birgalikda o'z ustida tinmay ishlashni talab etadi [6].

Shu o'rinda Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti birlashmasi xususida to'xtalib o'tish joiz. Birlashma 2020-yil dekabr oyida

tashkil etilgan bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari yetakchi ayollari o'rtasidagi hamkorlik platformasi hisoblanadi. Muloqot doirasida mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni saqlash, mamlakatlarimizda gender dasturlari va loyihalarini amalga oshirish borasida fikr va tajriba almashiniladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi va BMTTDning intaqaviy byurosi ko'magida tashkil etilgan. Ushbu birlashma ishlagan birinchi yilda unga raislik qilish O'zbekistonga yuklangan edi. Bu yil Muloqot doirasida qator tadbirlar o'tkazildi. E'tiborimizni qaratilgan asosiy mavzular ayollar yetakchiligi va tadbirkorlik masalalari bo'ldi. Boz ustiga, mazkur uchrashuvlar nafaqat dolzarb masalalarni muhokama qilish maydoniga, balki mamlakatlarimiz turli davlat tuzilmalari, nodavlat tashkilotlar, biznes tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun maydonga aylandi [2].

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi - 17 millioni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi.

Oxirgi to'rt yilda bu borada 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori qabul qilindi. Birinchi marta Senatda Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari bo'yicha qo'mita tashkil etildi [3].

Bugungi kunda 1400 ga yaqin ayollar Respublika va viloyatlar, 43 mingdan ziyodi tuman va shaharlar darajasidagi rahbarlik lavozimlarida ishlab kelmoqda.

Qizlarning sifatli ta'lim olishi, kasb egallab, ishli bo'lishi uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Talabalarning 48 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. O'tgan yili yo'lga qo'yilgan tizimga muvofiq, 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qiz oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi [1].

Xotin-qizlarning barcha sohalarida o'z bilim va kasbiy malakasini oshirishga ta'sir ko'rsatib kelgan bir qator omillar ularning oliy ma'lumot olishiga to'sinlik qilib keldi.

Xususan,

o'rta maxsus yoki oliy ta'lim muassasalarining hududiy bir tekis joylashmagani, oliy o'quv

yurtlarining 2/3 qismi poytaxtda joylashganligi natijasida qizlarda o'zi xohlagan mutaxassislikni olish imkoniyatining cheklanganligi;

kasb tanlash borasida qizlar uchun oilaviy hayotda foydali bo'ladigan hamshira, tarbiyachi, tikuvchi kabi mutaxassisliklarni ko'p hollarda otanalar tomonidan tanlanishi;

oliy ta'lim tizimida qizlarning ko'proq tibbiyot va pedagogika sohasida to'planishi va ishga joylashish jarayonida muammolarga uchrashi, ya'ni bitiruvchilar ko'rsatkichining talabga nisbatan yuqoriligi;

oliy ta'lim sohasidagi gender tafovutlari nafaqat ixtisoslik tarmog'ida, balki oliy ta'lim muassasalaridagi yigit va qizlarning sonida ham aks etishi bilan izohlanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joziki, xotin-qizlarning ta'lim olishi va kasb egallashi kelajak avlodning ilm-ma'rifatli bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning tarbiyasi oiladan boshlanadi, oiladagi muhit esa ota va onaning teng harakatlariga bog'liq. Shu maqsadda yurtimizda amalga oshirilayotgan sayi harakatlar tahsinga sazovor bo'lsa-da, ziyoli ayollar sonining oritishga to'sqinlik qilayotgan ba'zi sabablar haligacha saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, hududlarda ayollarning oliy ta'limga yo'naltirilganlik darajasi juda past. Oilalar xotin-qizlarga ta'limi uchun yaratilgan qulayliklardan haligacha bexabar yoki rasmiylashtirish tartibi haqida ma'lumotga ega emaslar. Shu maqsadda ayollar masalalari bilan shug'ullanuvchi hokim yordamchilaridan faollik va tushuntirish ishlarini olib borish talab etiladi.

Ikkinchidan, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari ortib bormoda. Bu holat ularning erkin harakatlanishi va xavfsizligiga tahdid tug'dirmoqda.

Qolaversa, qizlarni erta turmushga berish natijasida oilaviy nizolar, ajralishlar sonining ortishi va farzand tarbiyasi bilan bog'liq muammolar haligacha o'z yechimini kutmoqda. Yuqoridagi masalalarni bartaraf etish mamlakat taraqqiyoti uchun muhimdir. Shunday ekan, ayollar masalasi e'tibordan chetda qolmasligi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bazarbayev, S. X., & Babayev, S. E. (2023). Jamiyat ijtimoiy hayotida ayollar ijtimoiy faolligini oshirish. *Golden Brain*, 1(4), 141-146.
2. Begaliyevna, U. K. (2022). Yangi O'zbekistonda lider ayollar tayyorlash borasida olib borilayotgan islohotlar // *zamonaviy ta'lim: muammo va yechimlari*, 1, 254-256.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4494849>
4. Ismoilova H.A. (2022). farzandlarning tarbiyasida ayollar o'rnining ifodalanishi // *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar: onlayn ilmiy jurnal*. 2(12), 260-264.
5. Ne'matova, S. (2021). Olima ayollarning ijtimoiy taraqqiyot rivojiga qoshgan hissasi xususida // *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, 2 (1).
6. Raxmatullaayevna, G. A. (2023). Mustaqillik yillarida ayollar tadbirkorligining etnologik tahlili // *Ustozlar uchun*. 14(1), 185-189.
7. Xadjimusayeva, N. (2021). Axloqiy tarbiyada mashhur ayollar ibrat-namunasi // *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, 1 (Архив№ 2).
8. Толибоева Н.О. (2022). О'zbekiston xotin-qizlar ta'limi masalalari // *Взгляд в прошлое*. 5 (11).